O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR MA’NAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Karimov Tuyg‘un Jamanazarovich
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada zamonaviy axborotlashgan dunyoda yoshlar ongiga ta’sir etuvchi ma’naviy va axloqiy tahdidlar tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda, ularni bartaraf etish, milliy g‘oya va qadriyatlar asosida yoshlarni ma’naviy barkamollikka yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada yoshlar ma’naviy xavfsizligining ijtimoiy-psixologik asoslari, oila, ta’lim muassasalari, jamoatchilik va davlat siyosatining bu jarayondagi o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviy xavfsizlik, yoshlar siyosati, axloqiy tarbiya, ma’naviyat, axborot muhiti, milliy qadriyatlar, identifikatsiya, ta’lim tizimi.

Bugungi kunda globallashuv va axborot texnologiyalarini tobora shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda yosh avlod ma’naviyatini saqlab qolish va rivojlantirish masalasi mamalkatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ayniqsa, bu borada, o‘zbek jamiyati ma’naviy va mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash jamiyatning ma’naviy imidjini tinimsiz shakllantirib borish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xozirgi davrda xalqaro maydonda globallashuv jarayonlari tobora shiddat bilan chuqurlashib bormoqda. Buning natijasida milliy ma’naviyatimizga raxna soluvchi tahdidlar ortib bormoqda. Ayniqsa, globallashuv davrida ma’naviy tahdidlar ko‘lami kengayib borishi natijasida dunyoning mafkuraviy manzarasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Dunyo miqyosida kuzatilayotgan global o‘zgarishlar sharoitida ijtimoiy - siyosiy va ma’naviy sohadagi munosabatlarni rivojlantirish va uni yangi bosqichiga ko‘tarishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, jaxonda vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat tufayli ma’naviy tahdidlar, yot g‘oya va mafkuralar ta’siri ham tobora kengayib bormoqda. Bugungi kunda tobora avj olib borayotgan globallashuv jarayonlari ma’naviy yetuk, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash, erkin va yangicha fikrlaydigan, hozirgi tahlikali zamonda turli g‘oyaviy tahdidlarga nisbatan kuchli immunitet va muloqot ko‘nikmalariga ega, yoshlarni tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojni tobora kuchaytirmoqda. Bu haqda fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir” [1]. Binobarin, davlatimiz rahbarini fikriga ko‘ra, **ma’naviyat - jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir.** Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi. Shu o‘rinda, bugungi zamon talabi yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashda ezgu niyat, mustahkam e’tiqod, sog‘lom tafakkur, kuchli iroda kabi fazilatlarni shakllantirish va uni yuksaltirishga ehtiyoj tobora oshib borayotganligini ko‘pcatmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini barpo etish va milliy taraqqiyotimizni sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Biz Yangi O‘zbekiston barpo etishda xalqimiz orzu qilayotgan va intilayotgan, el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatni qurishda yoshlar qalbi va ongida yangicha dunyoqarashni shakllantirish, fuqarolarimizning

yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini yanada oshirish borasida ulkan yutuqlarga erishilmoqda.

Yurtimizda keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahbarligida amalga oshirilayotgan aniq maqsadga yo‘naltirilayotgan inson qadrini ulug‘lash va uning manfaatlariga mos davlat siyosatini olib borilishi Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so‘zsiz bajarish, har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, inson va uning baxt-saodatiga xizmat qilish, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta’minlash hamda xalq manfaatlari haqida g‘amxo‘rlik qilish masalasi davlatimiz siyosatining asosiy mezoniga aylanib borayotganligi barcha yurtdoshlarimizni behad quvontirmoqda.Ayniqsa, bu borada mamlakatimiz yoshlarni ma’naviy xavfsizligini ta’minlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunga kelib, milliy xavfsizlikka qaratilgan tahdidlar, ya’ni inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali diniy va milliy qadriyatlarga putur yetkazib, millat turmush tarzini izdan chiqaruvchi, jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ma’naviy tahdidlarni kuchayib borishi bu borada jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda..

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid qarorlari, jumladan “Yoshlar siyosati konsepsiyasi” va “Ma’naviyat va ma’rifat” dasturlari orqali yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. ***Ma’naviy xavfsizlik*** – shaxs, xalq va davlatning ezgu maqsadlarga yo‘naltiradigan jamiyat hayotidagi mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarning tahdidlardan himoyalanganlik holati[2]. Shu bilan bir qatorda, ma’naviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida umummilliy manfaatlarning himoya qilinishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Ma’naviy xavfsizlik deganda, milliy manfaatlarni ta’minlash ehtiyoji bois vujudga keladigan va jamiyat a’zolari ma’naviy, g‘oyaviy-ruhiy hayotining barqarorligi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat va uzluksiz jarayon tushuniladi. Ma’naviy xavfsizlik ma’naviy qadriyatlar rivojini ta’minlash, ularni tashqi tahdidlardan himoya qilishga yo‘naltirilib, ma’naviyatdagi ruhiy, psixologik, axloqiy jihatlarning uyg‘unligini ta’minlaydi.

Ma’lumki, inson ma’naviyatiga qarshi qilingan tahdid qurolli xurujlarga nisbatan ko‘proq ta’sir kuchiga ega bo‘lib bormoqda. Shu bois, bunday tahdidlarning oldini olish uchun milliy taraqqiyotning barqarorligini ta’minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan har qanday mamlakatda jamiyat a’zolari manfaatlarini himoya qilishda ma’naviy xavfsizlik masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribadan ma’lumki, muayyan mamlakatni zabt etmoqchi bo‘lgan istilochilar, avvalo xalqning ruhiyati, ma’naviyati va qadriyatlariga bolta urishga harakat qiladi. Milliy ma’naviyati va qadriyati parokanda etilgan millat va elatlar o‘zligini yo‘qotadi, hukmron mafkura ta’siriga tushib, uning manfaatlariga xizmat qilishga majbur bo‘ladi. Bugungi kunga kelib bir davlatni boshqa davlat tomonidan qurol yordamida bosib olish xavfi kamayib, global axborotlashuv ta’sirida ma’naviy omillar vositasida boshqa xalqlar ongi, qalbi va ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari beqiyos darajada oshdi.

Endilikda axborot tarqatish imkoniyatlari, turli xalqlar ma’naviyatiga kuchli ta’sir o‘tkazish, ma’naviy xavfsizligi zaif mamlakatlarni qaram qilish xavfining ko‘lami kengaymoqda. Shuning uchun jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy xavfsizlik tizimining ma’naviyat bilan uzviy bog‘liqligi ta’minlangandagina milliy xavfsizlikning yaxlit tizimini shakllantirish mumkin.

Globallashuv jarayonlari ma’naviy qadriyatlarni qadrsizlantirish, millatlarning ma’naviy-madaniy va tarixiy birligiga putur yetkazishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi bilan ham tavsiflanmoqda[3].

Ma’naviy xavfsizlik barqarorligini ta’minlashda esa ma’naviy omil yetakchi o‘rin tutadi. Ma’naviy xavfsizlikka ichki va tashqi tahdidlar ta’sir etishi mumkin. Ichki tahdidga ma’naviyatimizni zaiflashtirishga intilgan sobiq totalitar tuzum asoratlari, xususan ayrim shaxslar ongidagi eskicha fikrlash andozalarini, zararli va yot ta’sirlarga berilgan ba’zi kishilarning g‘arazli tashviqotlari, o‘tish davri qiyinchiliklaridan foydalanib qolishga intilayotgan niyati buzuq kimsalarning yoshlarni yo‘ldan urishga harakat qilayotganlarini kiritish mumkin. Milliy, diniy qadriyatlarimiz, an’ana va mentalitetimizga hamda mamlakatdagi milliy birlik, fuqaroviy totuvlikka rahna solayotgan, aholi ongi va qalbiga salbiy ta’sir etuvchi narkotik moddalarning kirib kelishi

«demokratiyani olg‘a siljitish» niqobi ostidagi sa’y-harakatlar tashqi tahdidlar sifatida ko‘zga tashlanmoqda. Mamlakatimizga turli vositalar orqali mafkuraviy tahdidlar kuchayayotgan hozirgi murakkab davrda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida aholi keng qatlamlari va yoshlar ongida Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o‘z navbatida, aholi ma’naviy xavfsizligini ta’minlash, yoshlarda turli tahdidlarga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish imkonini beradi. O‘zbekistonda yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlash - faqat tarbiya yoki ta’lim masalasi emas, balki milliy xavfsizlik strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayonda oila, ta’lim, jamoatchilik va davlat tizimlari hamkorlikda faoliyat olib borib talab etiladi.

Yoshlar ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda qo‘yidagilar alohida e’tibor qaratish lozim. Axborot muhitida sog‘lom kontent siyosati yuritish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy fanlar ulushini oshirish, psixologik xizmatlarni kuchaytirish va yoshlar markazlari faoliyatini kengaytirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”нашриёти, 2021.Б-267.
2. Исломов И.Маънавий хавфсизлик. Монография. – Т.: Complex Print, 2023. –Б-18.
3. Исломов И.Маънавий хавфсизлик. Монография. – Т.: Complex Print, 2023. –Б-17.